

ICHAKDA YASHOVCHI MIKROORGANIZMLAR VA ULARNING ORGANIZMDA BOKIMYOVIY JARAYONLAR VA METABOLIZMGA TA'SIRI

Botirova B.A.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali
Tibbiy va 214ermenta kimyo kafedrası

Ilmiy rahbar: TTA TF Tibbiy va 214ermenta kimyo kefedrası assistenti

Boltayeva S.J.

Kirish. Inson organizmidagi mikroorganizmlar organizmimizning normal ishlashida evolyutsiya jarayonida yuzaga kelgan ichak mikroflorasining ahamiyati katta. Shuningdek, so‘nggi yillarda ichak mikrobiotasining inson organizmiga ta’siri yanayam chuqur o‘rganib kelinmoqda. Olimlarning tadqiqot natijalariga ko‘ra, ichak mikrobotalari nafaqat ovqat hazm qilishi, balki inson ruhiy holatiga hamda biokimyoviy modda almashinuv jarayonlarida, 214erment tizimi faoliyatida va garmonal muvozanatda ham ishtirok etishi isbotlangan.

Tadqiqot maqsadi – ichakda yashovchi mikroorganizmlarning biokimyoviy jarayonlardagi ishtirokini ilmiy manbaalar asosida tahlil qilish, mikrofloralarning metabolizmga ta’sir mexanizmlarini o‘rganish va ular orqali sog‘liqqa ta’sirini aniqlash.

Materiallar va usullar – ilmiy maqolalar, darsliklar, monografiyalar, tibbiyot va biologiyaga oid ilmiy bazalar, klinik kuzatuvlar, hayvonlar va insonlar ustida olib borilgan eksperimental tadqiqotlar, shuningdek metaanalizlar tahlili, 214ermentati, probiotik va 214ermentat kasalliklar bo‘yicha tahliliy tadqiqot natijalari asos qilib olindi. Ichak mikrobiotasining 214erment tizimi faoliyati, uning endokrin tizimi bilan o‘zaro aloqasi, inson organizmidagi serotoninning qariyb 95 % I ichakda ishlab chiqarilishi hamda uning garmonal muvozanatdagi o‘rni, insulin- glyukoza muvozanatidagi ishtiroki ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari – tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faollik ichak mikrobiotasining foydali bakteriyalar sonini oshiradi. Bu esa immunitetni mustaxkamlash va 214ermentat sog‘liqni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, jismoniy faollikda butirat ishlab chiqaruvchi bakteriyalar sonining ko‘paytirishi esa, ichak salomatligini mustaxkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ichak mikrobiontlari tolali oziq-ovqatlarni fermentatsiya qilib, qisqa zanjirli yog‘ kislotalarini hosil qilishi isbotlangan. Bu o‘z navbatida yallig‘lanishni kamaytirib, yog‘-glyukoza almashinuvini tartibga 214erment hamda yurak salomatligini saqlab, diabet bo‘lish xavfini kamaytirishga olib kelgan.

Xulosa – Ichak mikrobiotasi organizmning 214ermentat jarayonlar holatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. U oziq – ovqat tarkibidagi murakkab

moddalarning parchalanishida, energiya ishlab chiqarishda, glyukoza-yog‘ almashinuvida hamda yallig‘lanish, 215ermen jarayonlarini tartibga solishda bevosita ishtirok etadi. Ichak salomatligiga mikrobiotalarning o‘zaro aloqalarinig ta’siri kelajakdagi yangidan- yangi yondashuvlarning yaratilishi uchun asos bo‘lishi mubolag‘a emas.